

O'ZBEK TILI DIDAKTIKASIDAGI MUAMMOLAR

Xusainova Guli Shavkatovna
UrDU mustaqil tadqiqotchisi
(O'zbekiston, Urganch)

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tili didaktikasidagi muammolar sifatida o'zga tilli (xorijiy til) guruhlarda o'zbek tilini o'qitish, ularni o'zbek tilida ravon gapira olish va yozish ko'nikma va malakalarini oshirish, til o'qitishning umumiy qonuniyatlarining shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek bugungi kundagi ahamiyati metodologik xususiyatalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, ona tili, xorijiy til, nutqiy ko'nikma, nutqiy malaka, o'qish, gapirish, tinglash, yozish, metodologiya, yozma nutq, og'zaki nutq.

ПРОБЛЕМЫ ДИДАКТИКИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Хусаинова Гули Шавкатовна
Независимый научный сотрудник УрГУ
(Узбекистан, Ургенч)

Аннотация:

В данной статье проблемами дидактики узбекского языка являются обучение узбекскому языку в других языковых (иноязыковых) группах, развитие у них беглости и навыков письма на узбекском языке, формирование общих закономерностей обучения языку и методологические особенности разработки, а также ее значение на сегодняшний день.


Ключевые слова: узбекский, родной язык, иностранный язык, Разговорные навыки, навыки говорения, чтение, говорение, аудирование, письмо, методика, письменная речь, устная речь.

PROBLEMS OF UZBEK LANGUAGE DIDACTICS

Khusainova Guli Shavkatovna
Independent Researcher of UrSU
(Uzbekistan, Urgench)

Annotation

In this article, the problems of didactics of the Uzbek language are the teaching of the Uzbek language in other language (foreign language) groups, the development of their fluency and writing skills in the Uzbek language, the formation of general laws of



language teaching and methodological features of development, as well as its significance today.

Keywords: Uzbek, mother tongue, foreign language, speaking skills, speaking skills, reading, speaking, listening, writing, methodology, written speech, oral speech.

Кириш

O‘zbek tilining tarixi bir necha ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Uning ilk ildizlari Markaziy Osiyo hududida yashagan qadimgi turkiy elatlar – sak, xunnu, qang‘li, chigil, yag‘mo, qarluq, qipchoq singari o‘nlab qabilalarga borib taqaladi.


Materiallar va usullar

VII-VIII asrlarga mansub O‘rxun-Enasoy obidalari barcha turkiy xalqlar qatori bizning ham qadimiy boyligimiz, merosimiz sanaladi. Buyuk ajdodimiz Bilga Hoqon 711 yilda o‘z bitiktoshida qadimgi turk tilida “ey turkiy elim. Sen o‘zingni angla, o‘zligingga qayt, shunda yuksalasan!” deya kelgusi avlodlarga vasiyatnomaga bitgan edi. O‘rta asrlarda Mahmud Koshg‘ariy, YUsuf Xos Hojib, Ahmad YUgnakiy, Ahmad YAssaviy singari allomalar o‘z asarlarini turkiyda bitib, tilimizning rivojiga hissa qo‘sishdi. Buyuk mutafakkir Hazrat Alisher Navoiy esa chin ma’noda bugungi o‘zbek adabiy tilining poydevorini mustahkamladi. Uning tashabbusi bilan ona tilimiz Xuroson mulkining davlat tiliga aylandi. Navoiy ilk bor o‘zbek tilida “Xamsa” yaratib, buyuk devonlar tuzib, uning boshqa tillardan kam emasligini isbot etdi. O‘z baytlarida nafaqat o‘zbek tilining boyligi va nafosati, balki o‘zbek elining milliy qiyofasi, qadriyatlarini ham tarannum etdi

Dunyo xalqlari va millatlarining madaniy o‘zagi va asosiy muloqot manbai bu ularning milliy tili hisoblanadi. SHunday ekan har bir tilning saqlanishi hamda yosh avlodga etkazilishi, xalq taraqqiyoti va uning kelajagini belgilaydi. Birgina til ko‘plab xalqlarni o‘zaro birlashtiradi, tarbiyalaydi, o‘qitadi, urf-odat, an’ana va madaniyatlarini saqlaydi, uni avloddan avlodga o‘tishini ta’minlaydi.

1989 yil 21 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Bu Qonun xalqimizning mustaqillik uchun qo‘yilgan dastlabki qadami bo‘ldi. Ushbu Qonunning 1-moddasi va Bosh Qomusimizning 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili” ekanligi va O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlanishi ham belgilab qo‘yilgan.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo‘lidagi muhim siljishlardan biri bo‘lib, ona tilimizning bor go‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. SHuningdek, davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlabgina qolmay O‘zbekiston hududida istiqomat



qiluvchi va mamlakatimizga xorijdan kirib kelayotgan barcha millat va elatlarning tillarini hurmat qilinishini ta'minladi

2020 yil 10 aprelda O'zbekiston Respublikasining "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi quvonarli hol bo'ldi. Ushbu qonun bilan har yili 21 oktyabr "O'zbek tili bayrami kuni" etib nishonlash belgilandi. Endilikda har yili 21 oktyabr butun mamlakatimiz bo'ylab katta bayram sifatida nishonlanadi. Bu esa ona tilimizni qay darajada ardoqlashimizni va hurmat qilishimizni bildiradi.

Muhokamalar va natijalar


Bugungi kunda O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi yangi rivojlanish bosqichiga o'tmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2019 yil 8 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi PF-5847-son farmoniga asosan respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish; oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish; oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish kabi ta'limning dolzarb masalalariga keng e'tibor qaratilmoqda. [2]

O'z navbatida ushbu jarayon mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalariga xorijiy talabalar e'tiborini ham keng jalb qiladi. Hozirga kelib O'zbekistondagi ko'plab oliy ta'lim muassasalarida mamlakatimiz yoshlari bilan teng qatorda xorijlik talabalar ham qunt bilan tahsil olishmoqda. Bu esa ta'lim sohasidagi mutaxassislar oldida xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlariga kata ahamiyat qaratishlarini taqozo etadi.

Metodologiyaning asosiy maqsadi o'quv jarayonida tilning xorijiy tili sifatidagi eng maqbul, eng dolzarb mavzularini aniqlashdir. SHuni yodda tutish kerak, til o'rganishda o'quv jarayoni bir qator tarkibiy qismlardan iborat:

- 1.Til o'rganuvchi o'quvchi, talaba, tinglovchi va boshqalar.
- 2.Tilga o'rgatuvchi o'qituvchi, mutaxassis.
- 3.Tilni o'rganuvchi o'quvchi, talaba, tinglovchi va boshqalarni tilga o'rgatuvchi o'qituvchi, mutaxassis bilan bog'laydigan fan mavzusi va o'qitish.[3. 12-15]

Metodologiya ushbu komponentning har birini alohida va o'zaro bog'lab o'rganadi. Talabalar auditoriyasida o'zbek tili xorijiy til sifatidagi darslarda mavzularni talabaga yetkazishda yozma va og'zaki nutqni bir-biriga o'zaro bog'lash usuli juda yaxshi natija




beradi. SHuning uchun ushbu toifadagi talabalar uchun metodologiyani shakllantirishda o‘zbek tilini o‘rganishga qaratilgan aloqa, ya’ni nutq faoliyatini o‘zbek tilida rivojlantirishning asosiy vazifasi - o‘qish, gapirish, tinglash, yozishdir. Bilimlar semestrlar o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlanmasa, ta’lim mazmunining uzviyligi va uzluksizligiga erishib bo‘lmaydi. Nutqiy ko‘nikmalar nutq faoliyatining 4 ta asosiy turi: o‘qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko‘nikmalari orqali yuzaga keladi va talabalarning olgan bilimlarini amaliy nutqiy faoliyatda sobitqadamlik bilan mustaqil ravishda qo’llay olish qobiliyatini - nutqiy malakanini hosil qilishga yordam beradi. Taniqli psixolog I.A.Zimnya ta’rificha, “malaka mashqlar natijasida harakatlarning yuqori mukammallikka erishuvni va nutqiy jarayonlarning avtomatlashuvidan”. Nutqiy muloqotda nutqiy malakaning hosil qilinishi esa kommunikativ maqsadning asosini tashkil etadi, chunki aynan tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish ko‘nikma – malakalari orqali ikkinchi bir tilda o‘zaro axborot almashish, og‘zaki va yozma muloqot yurita olish malakasi vujudga keltiriladi.

Tilni chet tili yoki ikkinchi til sifatida o‘qitishda yana 2 muhim jihatga e’tibor qaratish lozim: tilni til muhitida bo‘lmagan joyda o‘rgatish va tilni til muhitida o‘rgatish. Birinchi holat xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga taalluqli bo‘lsa, ikkinchi holat biror mamlakatda yashovchi turli tillar vakillariga shu mamlakatning davlat tilini o‘rgatishdan iborat.

Turkiston hududida yashovchi boshqa millat vakillariga o‘zbek tilini o‘rgatishga bag‘ishlangan dastlabki o‘quv qo’llanmalarining paydo bo‘lishi rus-tuzem maktablarning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan.[4. 19]

Psixolog olim L.S.Vigotskiy ona tili va ikkinchi til ta’limining pedagogik-psixologik usullari bir-biriga qarama-qarshi ekanligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Ona tilini o‘rganish pastdan yuqoriga, xorijiy tilni egallash esa yuqoridan pastga yo‘nalishida amalga oshiriladi”. Albatta, til chet tili yoki ikkinchi til sifatida o‘qitiganda bilimlarni lingvistik aspektidagi kabi chuqur va keng emas, balki kommunikativ tarzda, ya’ni muayyan muloqotni ta’minlaydigan leksik va grammatik minimumlar doirasida berib borilishi taqozo etiladi.[4. 268]

Tilni chet tili yoki ikkinchi til sifatida o‘qitishda asosiy e’tibor tilning nutqqa bog‘liq tomonlariga qaratilgani uchun muammoli masalalar anchagina bo‘lib, bu bilan metodistlar ham, psixolog olimlar ham shug‘ullanib keladilar. Psixologlarning ta’kidlashicha, o‘quvchilarda ikkilamchi til malakasining hosil bo‘lish yo‘li birlamchi – ona tili malakasi va ko‘nikmasi orqali yuz beradi. Ikkinchi bir tilda so‘zlash malakasining hosil bo‘lishi, avvalo, ushbu tilda fikr ifodalashga yordam beruvchi til vositalarini qo’llash ko‘nikmalarini shakllantirish va nutqiy muloqot jarayonida ulardan erkin va mujassam holda foydalanish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, bunday qobiliyat esa insonda ona tili malakalari asosiga qurilgan nutqiy ko‘nikmalar asosida shakllanadi.[4. 25]



Xorijiy talabalarga o'zbek tili o'qitishda foydalaniladigan intrefaol ta'lif metodlari, metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Til ta'limining asosiy vazifasi talabalar o'zbek tilidagi lug'at boyligini oshirish, ushbu lug'at boylididan grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri va o'rinni foydalanish, o'z fikrini aniq, bexato, jo'yali, mantiqli, asosli va ta'sirchan bayon qila olish ko'nikma-malakalariga ega bo'lish bilan bir qatorda:

- ta'limgni tizimli yondashuv asosida tashkil etish;
- har bir ta'lim sub'ektiga individual yondashish;
- o'qituvchini esa o'quv faoliyatining tashkilotchisi, talabalarining savodli maslahatchisi va yordamchisi sifatida qabul qilish;
- ta'lim jarayonida muammolarni qidirish va echish, bilimlarni amalda qo'llashga yo'naltirilgan faol va interfaol usullarni qo'llash;
- mashg'ulotlarda jamoa bo'lib va kichik guruhlarda ishslash shaklini keng yo'nga qo'yish;
- ta'lim jarayonida ta'limning an'anaviy vositalari bilan bir qatorda axborot texnologiyalarini ham keng qo'llash;
- talabalarini mustaqil ishslashga yo'naltirishga qaratilgan uslublarni bilishi va faol qo'llashi talab etiladi.


O'qituvchi ham o'zini shu jamoa a'zosi sifatida qarashi mumkin, yoki o'qituvchi darsda to'liq nazoratni o'z qo'liga olib talabalarini boshqarib boradi, yoki dars sharoitida tashkil bo'lgan jamoa bilan hamohang tarzda harakat qiladi. Bu kabilar hammasi o'qitish usullarining tarkibiy qismlari deb olsak bo'ladi.[5. 29]

O'quv-bilish faoliyatining tashkil etilishi, o'quv axborotlarining uzatilishi, qabul qilinishi, anglab olinishi, yodda saqlanishi, o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotda qo'llanilishini ta'minlash, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishiga ko'ra ta'lif metodlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- verbal (o'quv axborotlarni so'z orqali uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari yoki og'zaki metodlar – hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar);
- o'quv axborotini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metodlar – tasviriy, namoyish qilish va boshqalar);
- o'quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar – mashqlar, laboratoriya tajribalari va boshqalar).

Xulosa

Xorijiy talabalarga o'zbek tilini mukammal o'rgatishda audio-video apparatlar, o'quv videofilmlaridan foydalanish ham muhim vositalardan sanaladi. Bunda



o'qituvchilarga darslarini texnik vositalar bilan to'liq ta'minlangan auditoriyalarda o'tkazish uchun to'liq shart-sharoit yaratish zarur hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'limining xalqaro kompetensiyaviy darajalari va rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimidagi ilg'or medodika va tajribalarni o'zbek tili fanini o'qitish jarayoniga tatbiq etish keljakda soha mutaxassislari oldida ilg'or tajriba mifikidan ko'ra mukammalroq va qatiyoq ishlab chiqilgan.

АДАБИЁТЛАР

1. Rustam Jabborov. http://XXI_asr.uz/post/ozbek-tiliga-kim-etibor-qaratadi-holbuki-qoshni-va-qardosh-mamlakatlarning-davlat-tili-haqidagi-qonunlari-biznikidan-ko'ra-mukammalroq-va-qatiyoq-ishlab-chiqilgan.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёвнинг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш түғрисида» ги ПФ-5847-сон фармони
3. М.П.Чеснокова.Методика преподавания русского языка как иностранного. - Москва, МАДИ, 2015. С. 12-15
4. Назарова С. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1992. С.19
5. Зимняя И.А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. – Москва: МГУ, 1998. С. 29